



YURTIMIZDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNING AHAMIYATI

Termiz davlat Muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Mamayusupova Dilshoda Furqat qizi

mamayusupovadilshoda219@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik va o'rta biznesni yurtimizdagi o'rni hamda aholi bandligini oshirishiga qo'shadigan hissasi haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu tizimning mavjud holati, asosiy muammolari va uni rivojlantirish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar bayon etiladi.

Kalit so'z: kichik va o'rta biznes, investitsiya, ishlab chiqarish, strategiya.

Kirish

Bugungi rivojlanayotgan dunyoda barcha sohalarda o'zgarishlar bo'lganligi kabi kichik va o'rta biznes sohasiga bo'lgan talab ham ortmoqda. Kichik va o'rta biznes - bu mustaqil egalikka asoslangan, xodimlar soni va aylanma mablag'lari yirik bizneslarga nisbatan kam bo'lgan, ammo iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta'minlovchi tadbirkorlik sub'ektlaridan biridir. Nafaqat tadbirkorlik shakli balki iqtisodiyotning eng harakatchan qismidir. Ushbu g'oyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2025-yil 19-mart kuni ushbu soha vakillari bilan uchrashuv o'tkazgan edi. Mazkur suhbat davomida prezident Shavkat Mirziyoyev so'nggi 5 yil ichida kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar soni 2 karra ko'payganligini ta'kidlab o'tdi. Natijada 10 million 500 ming odam, ya'ni jami band aholining 74 foizi daromadli yo'nalishga ega bo'lganligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan edi.

Asosiy qism

Kichik va o'rta biznes mamlakat iqtisodiyotining nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmiga hissa qo'shadi, balki iqtisodiyotning raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari bozor talabidagi o'zgarishlarga tez moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu mavzuda O'zbekiston Respublikasi prezidenti ham bir qator fikrlarni ilgari surgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash-bizning strategik yo'limiz. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'kidlagan ushbu so'zlari barcha kichik va o'rta biznes yo'nalishiga kirib kelgan va yangi kirayotgan tadbirkorlarni yanada ruhlantirdi. Mamlakatimiz hududida kichik va



o'rta biznes so'nggi 5 yillikda 2020-2025-yillar oralig'ida iqtisodiyotning yetakchi drayveriga aylandi. Kichik va o'rta biznesning YaIMdagi ulushi 2020-yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 50 foiz atrofida barqarorlashdi. Masalan, 2022-yil esa bu ko'rsatkichlar soni 4 foizga oshdi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarining qariyb 50-60 foizi ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri keldi. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra tadbirkorlik kichik va o'rta biznes sohasida bir nechta muammolar ham bor, masalan kuchli mutaxassislarning yetishmasligi chunki malakali kadrlarning ko'pchiligi yirik bizneslarga o'tib ketishi. Moliyaviy resurs tanqisligi - O'zbekistonda moliyaviy resurs tanqisligini ishtirokchilarning qo'shimcha sarmoyasini kiritish yoki ulushni sotish orqali kapitalni oshirish bilan hal qilish mumkin. Reklama qila olmaslik ya'ni marketing salohiyatining pastligi.

Yillar kesimida esa ushbu holatining o'sish surati quyidagicha:

1-jadval

Yillar Yillar kesimida KOBning o'sish surati O'sish miqdori O'sish foizi

2020	417 313 ta	47 313 ta	12.8%
2021	497 717 ta	80 404 ta	19.27%
2022	543 960 ta	46 243 ta	9.29%
2023	606 723 ta	62 763 ta	11.54%
2024	647 297 ta	40 574 ta	6.69%
2025	1 212 000 ta	564 703 ta	87.24%

O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlar soni yildan yilga o'sib 2020-yil 417 313 ta, 2021-yil 497 717 ta, 2022-yil 543 960 ta, 2023-yil 606 723 ta, 2024-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra Respublikada 647 297 ta, 2025-yil 1 212 000 ta kichik tadbirkorliklar firmalari va korxonalari ro'yxatdan o'tgan.n yilga o'sib 2020 – yil 417 313ta, 2021-

2-jadval

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi ko'rsatkichlari (2020-2025)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	51,3	52	51,8	53,1	54,3	56

Tarmoqlar bo'yicha ulushi

Sanoatda	21,2	24	25,1	25,6	26,1	28
Qishloq xo'jaligida	96,5	97	97,1	96,8	96,7	97,5
Qurilishda	71,5	72,4	73,1	74,3	74,8	79,4
Xizmatlar sohasida	38	41,5	42,6	45	47,5	50



Chakana savdoda 80,4 82,1 83,5 85,2 86 88

Ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rni yildan-yilga oshmoqda. 2020-yildan to 2025-yilga qadar bo'lgan o'zgarishlar kichik va o'rta biznesning YaIMdagi ulushi 4,7 foizga oshgan, sanoatda 6,8 foizga oshgan, qishloq xo'jaligida 1 foizga oshgan, qurilishda 7,9 foizga oshgan, xizmatlar sohasida 12 foizga oshgan, chakana savdoda esa 7,6 foizga oshgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes ish faoliyati yurtimizga katta foyda olib keladi. Agar biz kichik va o'rta biznesni bundanda rivojlantirmoqchi bo'lsak xorijiy investitsiyalar, qo'shimcha moliyaviy manbalar, hamkorlik bitimlari, kredit liniyalari, infrastrukturaviy va yuridik cheklovlarni bartaraf etishimiz lozim. Agar shu kabi muammolarni bartaraf etsak, davlat tashkilotlari ham muammolarni yechishga bizga imkon qadar yordam bersa jamiyat yanada o'sish bo'ladi. Kichik va o'rta biznes subyektlarining o'zaro raqobatbardoshligini o'stirish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'ziga jalb etishning nafaqat yangi balki kreativ strategik usullarini ishlab chiqishga undaydi. Shu boisdan, birinchi navbatda an'anaviy marketing usullaridan voz kechish talab etiladi va raqamli texnologiyalarga tayangan korporativ boshqaruv tizimini joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash zarur ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, mahsulot va xizmatlar brendini xalqaro talablar ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Investorlar bilan hamkorlikni biznes-investor yondashuvi asosida tashkil etish, ushbu yo'nalishlarning strategik jihatdan muhimligini oshiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan ilgari surilayotgan innovatsion marketing yondashuvlari va investitsion strategiyalar shunchaki iqtisodiy vosita emas, balki mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi strategik drayverdir. Tadbirkorlik salohiyatini xorijiy kapital va ilg'or texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali biz nafaqat biznes muhitning raqobatbardoshligini oshiramiz balki milliy iqtisodiyotning global zanjirlarida munosib o'rin egallashga poydevor qo'yamiz. Binobarin, bugungi kunda ushbu yo'nalishda qilinayotgan har bir tizimli qadam kelajakdagi yuksak iqtisodiy yutuqlar va istiqbolli natijalarning garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAYTLARI RO'YXATI

1. "Kichik biznes va tadbirkorlik" O'quv qo'llanma (E.Egamberdiyev, X.Xo'jaqulov. Toshkent Moliya instituti. Toshkent 2003 yil.175 bet)



2. Tadbirkorlik faoliyati tahlili (Surxondaryo viloyati misolida)
1. Ergasheva Komila To‘ra qizi
2. Kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari (Biznesni rivojlantirish banki misolida) Usanov Ilhom Baxodirovich magistrant O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi
3. O‘zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri).
4. Berkinov B.B. Kichik tadbirkorlik tuzilmalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi <https://stat.uz>
6. Kichik va O‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash <https://www.gazeta.uz>
7. <https://uz.wikipedia>